



THE CONCEPT, GENESIS AND EVOLUTION OF SOCIAL MEMORY

Kodirjon Makhkamov

Professor at Namangan State University, PhD

e-mail: maxkamov_82@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: memory, information, global, custom, tradition, value social, Academician I. P. Pavlov.

Received: 20.05.26

Accepted: 21.05.26

Published: 22.05.26

Abstract: The article reveals the complex social functions of social memory, which transmit the historical experience, values, traditions and knowledge of society from generation to generation, and its role and significance in the process of remembering the past, as well as its understanding, interpretation and adaptation to the needs of the present. This concept has been formed throughout the development of mankind and has acquired different meanings in different periods. This article analyzes the essence of the concept of social memory, the process of its formation (genesis) and the stages of historical development (evolution). It also sheds light on the role of social memory in the life of society and its impact on cultural and spiritual development on a scientific basis.

IJTIMOYIY XOTIRA TUSHUNCHASI, GENEZISI VA EVOLYUSIYASI

Qodirjon Maxkamov

Namangan davlat universiteti professori, PhD

e-mail: maxkamov_82@mail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: xotira, axborot, global, urf-odat, anʼana, qadriyat ijtimoiy, Akademik I. P. Pavlov.

Annotatsiya: maqolada ijtimoiy xotiraning jamiyat tarixiy tajribasi, qadriyatlari, anʼanalari va bilimlarini avloddan-avlodga uzatib keluvchi murakkab ijtimoiy funksiyalari va oʻtmishni eslab qolish, balki uni anglash, talqin qilish va hozirgi

zamon ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish jarayonidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Mazkur tushuncha insoniyat taraqqiyoti davomida shakllanib, turli davrlarda turlicha mazmun kasb etgan. Ushbu maqolada ijtimoiy xotira tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shakllanish (genezis) jarayoni hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari (evolyusiyasi) tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy xotiraning jamiyat hayotidagi o'rni, madaniy va ma'naviy taraqqiyotga ta'siri ilmiy asosda yoritib beriladi.

КОНЦЕПЦИЯ, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПАМЯТИ

Кодиржон Махкамов

Профессор Наманганского государственного университета, PhD

e-mail: taxkatov_82@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информация, глобальный, традиция, социальная ценность, И. П. Павлов.

Аннотация: В статье раскрываются сложные социальные функции социальной памяти, передающей исторический опыт, ценности, традиции и знания общества из поколения в поколение, а также её роль и значение в процессе осмысления прошлого, её понимания, интерпретации и адаптации к потребностям настоящего. Это понятие формировалось на протяжении всего развития человечества и приобретало различные значения в разные периоды. В статье анализируется сущность понятия социальной памяти, процесс её формирования (генезис) и этапы исторического развития (эволюция). Также на научной основе освещается роль социальной памяти в жизни общества и её влияние на культурное и духовное развитие.

Kirish. Insonda shaxsiy tajriba, ko'nikma, malaka va bilim ko'laminin orta borishi bilan faoliyatda, xulq atvordagi o'ziga xos xususiyatlar tobora murakkablashib borib yangicha mazmun va yangi sifat kasb eta boshlaydi. Chunonchi tashqi olamdagi ijtimoiy timsollar va ularning izlari, madaniy va ma'naviy qadriyatlar, milliy tarixga bo'lgan munosabat yo'qolib ketaversa, tajribaning

saqlanishi, bilimlarning boyishi va mustahkamlanishi, jamiyatning muayyan o'rnatilgan tartibini qaytadan jonlantirish qiyin kechadigan jarayon sifatida ijtimoiy turg'unlikni yuzaga keltirar edi. Ushbu jarayonlar inson xotirasida sodir bo'ladigan xodisadir. Xotiraga "atrof muxitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchiesda olib qolish, esga tushirish, unitish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy xodisa, barcha ta'sirlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik xotira faoliyati" [1,443] sifatida qaraladi.

Asosiy qism. "Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi". "Xotira atrof-muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat psixik jarayon alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunon mnema-xotira) faoliyatdir". Mnema xotiraning o'ziga xos moddiy asoslarini belgilash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi. Akademik I. P. Pavlov nazariyasiga ko'ra xotiraning moddiy asosi bosh miya qobig'ida hosil bo'lgan muvaqqat asab bog'lanishlaridan iborat.

Yuqorida berilgan ta'riflar xotiraning murakkab, keng qamrovli ekanligini bildiradi. Ta'riflarda xotiraning esda olib qolish, saqlash, esga tushirish, tanish, eslash va unutish kabi asosiy jarayonlari alohida ajratib ko'rsatilgan, lekin ularning har biri mustakil holat va jarayon hisoblanmaydi. Chunki ular muayyan faoliyat davomida, xoh bilish yoki mnemik faoliyat bo'lishidan kat'i nazar shakllanib roruvchi hamda faoliyat tuzilishining mohiyati va mazmuni bilan belgilanadi.

Inson xotirasini uning yer yuzida paydo bo'lgan davrlardanoq vujudga kelgan bo'lsada uni ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish "Sharq mutafakkirlari va Yunon faylasuflari ta'limotlarida uchraydi. Xususan, Forobiy xotirani bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, uning faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini alohida ta'kidlagan." [2,611] Demak, xotira faqat insongagina xos bo'libgina qolmay balki boshqa jonzotlarga ham xos xususiyatdir. "Zamonaviy psixologiyada xotira atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yul bilan aks ettirgan holda esda olib qolish, esga tushirish, unutish xamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon sifatida talqin qilinadi". [2,612] Shuning

uchun inson tomonidan muayyan bir materialni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uniig individual tajriba ko‘lami, bilim saviyasi va aql-zakovati darajasiga bog‘liqdir.

Inson xotirasi ikki ko‘rinishga: qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralarga bo‘linadi. Qisqa muddatli xotira-insonning biror olgan ma‘lumoti yoki hodisalarni bir necha soniyadan ma‘lum bir soatga yoki kungacha sodir bo‘lsa, uzoq muddatli xotira ushbu qisqa muddatli xotiradagi o‘ziga kerak deb hisoblagan ma‘lumotni o‘z ongida saqlab qolishiga aytiladi. Shuningdek, inson xotirasi turli usul va vositalar bilan rivojlantirib boriladi. Masalan ularga: aql va tuyg‘ularni yuksalishi, olingan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash, jamiyatdagi kontent ta‘sir, tashqi taassurotlarni qalbga joylash, yod olish, milliy o‘ziga xoslikka intilish, jamiyatning ijtimoiy e‘tibori, ixtiyoriy va majburiy unutish, strukturaviy va boshyalarni kirsatish mumkin. Psixologiyada xotira mavjud axborotni saqlash vaqtiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: lahzali - 0,1 - 0,5 soniya davomidagi his yoki tuyg‘uli saqlashlar; qisqa muddatli - axborotni qisqa vaqt davomida (10 - 15 daqiqa) saqlash; operativ - ma‘lumotni ma‘lum, oldindan belgilangan muddatga saqlash (20 soniyadan bir necha kungacha); uzoq muddatli-olingan axborotni uzoq muddatli yoki cheklanmagan saqlash.

Xotiraning yuqorida aytganimiz ikki ko‘rinishlari ham o‘z navbatida ayrim turlarga bo‘linadi. Bularga: deklarativ (aniq) xotira-bu ongli ravishda maqsadli eslab qolishni bildirsa, protsessual (jarayondagi) xotira –ma‘lum bir qoidalarga asoslangan kundalik hayotda foydalaniladigan bilim va ko‘nikmalar hisoblanadi, Atkinson-Shiffin xotira modeli esa ma‘lumotlarni chegarasiz saqlovchi xotira turi bo‘lib u semantik xotira ya‘ni hayot davomida to‘plangan bilim va tajribalar majmuidan farq qiladi. Bundan tashqari induvidual shaxsga tegishli bo‘lgan avtobiografik xotira, shaxsiy tajribalarni ham ko‘rsatish mumkin.

Inson xotirasi bir nechta tasniflarga ega bo‘lib ularga: harakatni yodlash va takrorlash; hodisa va jarayonlar xususiyatlarini esda saqlash; Og‘zaki-mantiqiy (shaxsga xos bo‘lgan xotira shakli) o‘rganish bilan bevosita bog‘liq tasnif; hissiy inikoslarni hamda uning keltirib chiqaruvchi obektlar bilan birgalikda eslab qolish va takrorlashda sodir bo‘ladigan hissiy tasnif; insoniy tasvirlarni eslab qolishi va takrorlash tavsifi; ma‘lum bir maqsad va vazifa bilan o‘ylangan materialni malum usullardan foydalangan holda o‘rganish va takrorlash tasniflari mavjud. Shuningdek, xotiraning individual mustahkamlashda quyidagi usullari samarali hisoblanadi: o‘rganilayotgan ob‘ektzni bilish, o‘zlashtirish, birlamchi va ikkilamchi jihatlarini ajrata olish; xis-tuyg‘ular orqali bilish, bunda saqlanyapgan axborotni eslab qolish osonlashadi; jismoniy mashqlar orqali xotirani chiniqtirish; olingan bilimni takrorlab turish, bu unitishni oldini oladi.

Xotira va uni unitish muammosining inson hayotidagi roli mavzusi qadim - qadimdan faylasuflar, tarixchilar, ilohiyot olimlarining markaziy o‘rganish masalalaridan bo‘lib kelgan.

Platon [3,251] xotirani inson bilimi bilan bog‘liq deb hisoblasa, “odamlarning eslash va xotiraga ega bo‘lish qobiliyatlari turlicha yekanligini payqash mumkin. Darhaqiqat, eslash va eslaydiganlar bir xil mohiyat emas, lekin odatda yaxshi xotiraga yega, chaqqon va zukko odamlargina osonroq yeslashadi” [4,161] deganda faylasuf Arastu inson xotirasini rux bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Avreliy Avgustin esa, inson hayot yo‘lini uzluksizligini ta’minlovchi, doimiy mavjudlikning zaruriy sharti deb bilgan. Faylasuf Avgustin o‘zining “E’tirof” asarida tarixiy xotiraning jamiyatdagi ahamiyati haqida shunday yozadi: “uchta vaqt bor - o‘tmishning hozirgi davri, hozirgi zamon va kelajak. Bu uch vaqt bizning qalbimizda mavjud bo‘lib men ularni quyidagicha ta’riflayman: o‘tmishning hozirgi vaqti bu xotira, hozirgi zamon esa uning bevosita tafakkuridir, kelajakning vaqti uni kutulishidir” [5,293-294] degan hulosani beradi.

Inson xotirasining qonuniyatlari o‘rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Ammo yangi asr boshiga kelib ijtimoiy xotira muammosi ko‘plab soha tadqiqotchi olimlarining diqqatini tortmoqda. Xotira to‘g‘risida gapirgan u murakkab va ko‘p qirraliligi bo‘lib, bugungi kunda xotira tadqiqotlariga qaratilgan ilmiy ishlar ko‘payib bormoqda. Tadqiqotchi olim J. Olick xotirani “paradigma bo‘lmagan, markazlashtirilmagan korxonalar”[6,5] deb tavsiflaydi. Xozirga kelib xotira mavzusi ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy paradigmasiga aylanmoqda.

Xotira nazariyasi asoschilaridan biri Moris Xalbvaks “xotiraning ijtimoiy doirasi” (les cadres sociaux de la memoire) kontsesiyasida xotirani ijtimoiy bosim ostida shakllanishini ochib bergan. Moris Xalbvaksning fikriga ko‘ra, “xotira "o‘tmishni o‘zgartirish ishidir" va “ijtimoiy” shaxsning xotirasi guruh xotiralari bilan belgilanadi”.[7,34] Inson o‘z xotirasini shakllantirishida jamoa va uning a‘zolarining yordamiga tayanadi degan fikrni ilgari suradi. Uilyam Jeyms xotira hodisasining assotsiativ xususiyatini qayd etadi. Uning fikricha “yodlash va eslab qolishning sababi g‘oyalar assotsiatsiyasi bilan bir xil rol o‘ynaydigan asab tizimidagi odatiylik qonunidir”. [8,368]

Aslida xotira murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u ikki yondashuv asosida: ijtimoiy va tarixiy xotira shaklida tadqiq etiladi. Ushbu nuqtai nazardan xotira ma’lumotlarni eslab qolish, saqlash, ko‘paytirish va havola qilish orqali namoyon bo‘ladi. “Xotira-in’ikos etilgan narsa va xodisalarni yoki o‘tmish tajribalarini esda qoldirish va zarur bo‘lganda tiklashdan iborat psixik jarayon; tasavvur va tushunchalarning hissiyotdan so‘ng saqlanib qolishidir”.[9,294]

Xozirga qadar o‘rganilgan xotira xususidagi tadqiqotlar uning ko‘plab shakllari ochib berilgan. Masalan: Reminissensiya (lotincha “eslash”) - zarur paytda esga tushmagan yoki avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushishidan iborat jarayon bo‘lib,

vaqtinchalik unutishni anglatadi; Eydetizm (yunoncha “ko‘rinish”) avval idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini ongda aniq, to‘liq va yorqin holda uzoq vaqt saqlab qola olish qobiliyatida ifodalaydigan ruhiy hodisasi bo‘lib, u kichik yoshda odatiy xodisa sifatida qabul qilinadi. Shu sababli keyinchalik ushbu taassurot xotirotda bir umr muhrlanib qoladi; obrazli xotira - yaqqol mazmuni, yani narsa va xodisalarning aniq obrazlarini, ularning yorqin xususiyati va bog‘lanishlarini esda qoldirish, mustahkamlash, hamda esga tushirishdan iborat xotira turi; xarakterli xotira - turli xarakterlarni, ularning bajarilish tartibi, tezligi, sur‘ati, izchilliga va boshqa sifatlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat turi; mantiqli xotira - ma‘lum g‘oyalar, fikrlar hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni esda qoldirish, mustahkamlash va zarur paytlarda esga tushirishdan iborat bo‘lgan xotira turi. Masalan, falsafiy mushohadalar, qonuniyatlar va shu kabilarni esda qoldirish, mustahkamlash va qayta tiklash jarayonlaridir; his-tuyg‘u xotirasi - voqelikdagi narsa va hodisalardan, o‘z-o‘zimizga bo‘lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish va esga tushirishdan iborat xotira turi; mexanik (grekcha, “ongga yo‘naltirilmagan”) xotira - muayyan materialni uning mazmuni, mohiyati, ichki mantiqiy bog‘lanishlariga tushunmagan holda, faqat muhim bo‘lmagan tashqi belgilariga asoslanib esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi; fenomenal (grekcha “noyob”) xotira - idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog‘lanish munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyat; tezkor (lotincha “tezkor”) xotira - inson tomonidan bevosita amalga oshiriladigan ko‘z harakatlari, aqliy harakatlar uchun xizmat qiluvchi xotira jarayonidan iboratdir; qisqa muddatli xotira - bir marta, shuningdek, qisqa vaqt oralig‘ida idrok qilish hamda shu kezdayoq qayta tiklashdan iborat bo‘lib, qisqa muddatli esda olib qolish bilan tavsiflanadi. Axborotning saqlanishi 30 sekundgacha bo‘lishi mumkin; uzoq muddatli xotira - ko‘p martalab takrorlash va qayta tiklashlar orqali uzoq vaqt, muddat esda olib qolishga mo‘ljallangan xotira turlari mavjud.

Umuman olganda “xotira-o‘tmishdagi tajribani takrorlash qobiliyati, asosiylaridan biri sifatida tashqi hodisalar haqida ma‘lumotni uzoq muddatli saqlash qobiliyatida ifodalangan asab tizimining xususiyatlari bo‘lib, u inson hayotiy tajribasining uyg‘unligi va barqarorligini bildiradi, inson mavjudligining uzluksizligini ta‘minlaydi”. [10,474]

Ma‘lumki, xar bir millatning qiyofasi, jamiyatning ijtimoiy mohiyati, uning katta kichikligidan qat‘i nazar, etnogenezda birinchi navbatda milliy ong va dunyoqarash shakllanadi. O‘tgan asrda inson xotira muammosini tadqiq etish barobarida hayotiy ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlarning inson ruhiyatiga ta‘siri, va shu orqali ongni o‘zgartirish, xotira xodisasining turli

darajalarini vujudga keltirish masalalari tadqiq etilgan edi. Olimlar xotira tushunchasiga ijtimoiy, siyosiy, falsafiy nuqtai nazardan yondashib ijtimoiy jihatlariga ko‘proq e‘tibor berish lozimligini uqdirishgan. Ammo, xotiraning tarix aniqrog‘i o‘tmish bilan bog‘liq jihatlariga duch kelganda tarixiy xotira yoki madaniy xotira bilan cheklanib, ijtimoiy xotirani hisobga olishmagan edi. Taniqli olim Le Goff buni “mifologik, buzilgan, anaxronistik” [11,12-34] xotira sifatida baholagan.

Qolaversa xotiraning jamoaviy, madaniy, tarixiy shakllari mavjud bo‘lib, ular kommunaktiv tarzda o‘zaro bir-birini to‘ldirib boradi. Shu ijtimoiy orqali ularning birlashmasi ijtimoiy xotirani tashkil etadi. Ijtimoiy xotira to‘plangan tajribalar, bilim va ko‘nikmalar, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar va boshqa omillar tarixiy tajribasining jamiyat ijtimoiy hayotida namoyon etadi. Tariqli fransuz sotsiologi Moris Xablvaks umum xotirani ikkiga individual va ijtimoiy xotiraga ajratadi. Ijtimoiy xotira jamoaviy ko‘rinishga ega bo‘lgani uchun individual xotiraga asos bo‘ladi deydi. Ijtimoiy xotira tushunchasi Yan Karlovich Rebane, Veniamin Alekseevich Rebrin, Yuriy Levada va boshqa tadqiqotchilar mexnatlarining samarasi o‘laroq XX-asrning ikkinchi yarmining boshlarida ilmiy muomalaga kiritildi. Ungacha ushbu tushuncha tarixiy xotira, jamoaviy xotira, jamoaviy miya, insoniyat xotirasi, dunyo xotirasi kabi atamalar yordamida ta‘riflab kelingan. Ijtimoiy xotira Rossiyskaya sotsiologicheskaya ensiklopediya kitobida “to‘plangan ijtimoiy tajriba” ni yangi avlodlarga o‘tkazish uchun hozirgi paytda muhim bo‘lgan ijtimoiy bilimlarni boshqaradigan va o‘tmish haqidagi ma‘lumotlarga aylantiradigan ijtimoiy-madaniy usullar va institutlar tizimidir”. [12,664] deb ta‘rif beriladi. Ijtimoiy xotira, individual xotiraning (ontogenez va filogenezda) rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib uni tadqiqotchi Lorina Repina: “Tarixiy xotira jamoaviy xotira (jamoaning tarixiy ongiga mos) yoki ijtimoiy xotira (jamiyatning tarixiy ongiga mos) majmua” [13,44]ga qiyoslaydi. Bizningcha ijtimoiy xotira ham jamoaning ham jamiyatning barcha tarixiy tajribalari kundalik hayotda aks ettirib beradi.

Ijtimoiy xotiraning shakllanish mexanizmlari turli bosqichlardan iborat bo‘lib, birinchi bosqichi dastlabki bilimlar, tajribalarni shakllanishi bo‘lib unda asosiy rolni atrof-muhit, oila, urug‘, qabila, jamoa boshlang‘ich ijtimoiy xotirani shakllantirgan, bu jamoalarda urug‘ va qabilalarni birlashtirishda muhim o‘rin egallagan. Ammo ushbu bosqich uning ilk mukammallashmagan shakli hisoblanadi; Ikkinchi bosqich, amaliy tajribalarni takomillashuvi, ma‘lumotlar manbasini ko‘payishi, jamiyat a‘zolarining tarbiyaviy, ahloqiy, g‘oyaviy hamda voqea va hodisalarni saqlash va kelajakka yetkazib berish vazifasini bajaradigan bosqich bo‘lib, unda jamiyat, davlatchilikning turli shakllari vujudga keladi va umumijtimoiy xotirani rivojlantiradi; Uchinchi bosqich, jamiyatning umum maqsadiga qaratilgan g‘oyalar, milliy

mafikura shakllanadi, xalqning tarixiy madaniyati takomil darajaga yetib, davlat va jamiyat yaxlit birlashadi. Shu bilan birga, axborot manbalari yaratiladi, bunda kutubxona, arxiv, muzeylar muhim o‘rin egallaydi.

Ijtimoiy xotira reproduktiv, rekonstruktiv va konstruktiv shakllarga ega bo‘lib uning asosiy tashuvchilari bu inson ongi (ijtimoiy hodisa xotirasi), ma’lumotlar va ularni uzatish vositalari, axborot tashish uchun mo‘ljallanmagan moddiy ob’ektlardir. Ushbu mexanizmlar o‘tmishni tizimlashtirib bugungi kun bilan aks ettiradi va tarixiy xotirani yangilab boradi. Lekin uning qarshi aksi ham mavjud bo‘lib uni ilm-fanda ijtimoiy amneziya deb ataymiz. Axborotning qarishi yoki jamiyat mavjud ma’lumotlarni rad eta boshlashi amneziyaga sabab bo‘lishi mumkin. Bunda bir gurux qatlamning manfaatlari asosiy o‘rin egallaydi. Ya’ni o‘tmishni o‘ziga moslab talqin qilish va mafkuralashtirish jamiyatdagi ijtimoiy xotiraga keskin zarba beradi.

Ijtimoiy xotira tarixiy amneziya va tarixiy tajribani shakllantirishda ikki tomonlama funksiyani bajaradi. Tarixiy tajriba “o‘tmish haqidagi bilimlarning asosi bo‘lib, o‘tmishdagi xatolarni hozirgi vaqtda takrorlashni oldini olish mexanizmlarini keltirib chiqaradi”.[14, 189-195] Ijtimoiy xotira jamoaviy xotiraning i’nikosi sifatida har qanday ijtimoiy guruh vakillarida o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishni shakllantiradi.

Xulosa. Zamonaviy o‘zbek jamiyatida ijtimoiy xotiraning transformatsiyalashuvi zamon va davr ruhi ta’sirida shakllanuvshi yangi komponentlarni (global tarix, dunyo xotirasi, prezentizmni) shakllantirib sotsiumda muhitga moslashish va ijtimoiylashish, sotsiomadaniy identifikatsiyaning tranzitivligining (ijtimoiy maqom) bog‘liqligiga asoslanadi. Shu bilan birga ijtimoiy xotira jamiyatda sotsial jamoalarni o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Shu jihati bilan etnoslararo munosabatlarda salbiy xususiyatlar ko‘rinishida kishida identifikatsiya xatarlarini paydo qiladi. Identifikatsiya xatarlari jamiyatda ijtimoiy, diniy, milliy yoki siyosiy masalalarda mavjud ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan potensial tahdidlar tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент: Шарқ, 2004 –Б.443.
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. –Б. 611.
3. Платон. Театет // Собрание сочинений: в 4 тт. / Обш. ред. А. Ф. Лосева, В. Ф. Асмуса, А. А. Тахо-Годи; Перев. с древнегреч. Москва: Ммсль, 1993. Т. 2. С. 251.
4. Аристотель. О памяти и припоминании // Вопросы философии. 2004. № 7. С. 161.
5. Аврелий Августин. Исповедь. Москва: Ренессанс, 1991. С.293-294.

6. Olick J.K., Robbins J. Social Memory Studies: from “Collective Memory” to the Historical Sociology of Mnemonic Practices // Annual Review of Sociology, 1998. P.5.
7. Halbwachs M. Das Gedächtnis und seine soziale Bedingungen. Frankfurt a. M.: Suhrkamp Taschenbuch, 1985. S. 34.
8. Джеймс У. Психология. Москва: Педагогика, 1991.-368 с.
9. Фалсафа энциклопедик луғат. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2010. –Б. 294. (344)
10. Философский энциклопедический словарь/Гл. Редакция: Ф56 Л. Ф. Ильичев, П. Н. Федосеев, С. М. Ковалев, В. Г. Панов - Москва: Сов. Энциклопедия, 1983. –С. 474. (840с.)
11. Шнирельман В.А. Социальная память – вопросы теории / Отв. ред. В. А. Тишков, Е. А. Пивнева // Историческая память и российская идентичность. Москва: РАН, 2018. - С. 12-34. (508 с)
12. Российская социологическая энциклопедия / Под общей редакцией Г. В. Осипова. - Москва: НОРМА-ИНФРА, 1998. - С. 664.
13. Репина Л.П. Культурная память и проблемм историописания (историографические заметки) Москва: ГУ ВШЭ, 2003. - С. 44.
14. Гизатова Г.К., Иванова О.Г. Историческая амнезия и исторический опыт. Контекст и рефлексия: философия о мире и человеке. 2019. Том 8. № 5А. С. 189-195.